

JADID MA'RIFATPARVARLIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING TARIXIY-IJTIMOIIY SHART- SHAROITLARI

Maxmitova Difuza Saydazimovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Jadid ma'rifatparvarlik harakatining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy hamda ijtimoiy shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida mavjud bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar, an'anaviy ta'lim tizimining inqirozi, yangi dunyoviy bilimlarga ehtiyojning ortishi hamda islohotchilik g'oyalari jadidchilik harakatining vujudga kelishiga asos bo'lgani ilmiy jihatdan asoslab berildi. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi jadid ziyolilarining ma'rifiy faoliyati, ular yaratgan yangi usul maktablari va ijtimoiy-siyosiy qarashlarning shakllanishi keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, Turkiston, islohot, ma'rifiy harakat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются исторические и социальные условия, повлиявшие на формирование и развитие джадидского просветительского движения. Особое внимание уделено политическим, экономическим и культурным процессам, происходившим в конце XIX - начале XX века в Туркестане, кризису традиционной системы образования, росту потребности в светских знаниях и появлению реформаторских идей. Научно обосновано, что именно эти факторы стали основой для возникновения джадидизма. В статье также подробно раскрывается просветительская деятельность Махмудходжи Бехбуди, Абдуллы Авлони, Абдурауфа Фитрата и других джадидов, их вклад в создание новых методов обучения и формирование общественно-политических взглядов.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, новые методические школы, Туркестан, реформы, просветительское движение.

ABSTRACT

This article examines the historical and social conditions that contributed to the emergence and development of the Jadid enlightenment movement. It analyzes the political, economic, and cultural processes in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries, the decline of the traditional education system, the growing

need for modern secular knowledge, and the rise of reformist ideas. The study demonstrates that these factors formed the foundation for the development of Jadidism. The article also highlights the educational activities of Mahmudkhwaja Behbudi, Abdulla Avloni, Abdurauf Fitrat, and other Jadid intellectuals, as well as the establishment of new-method schools and the evolution of their socio-political views.

Keywords: *Jadidism, enlightenment movement, new-method schools, Turkestan, reform, educational modernization.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston (hozirgi O‘zbekiston va unga tutash hududlar) Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylangan edi. Ushbu mustamlaka holati jamiyatda bir necha asosiy muammolarni keltirib chiqardi:

- ijtimoiy-siyosiy inqiroz – mahalliy hokimiyatning zaiflashuvi, beqarorlik;
- savodsizlik va ta’lim muammolari – eski usul maktablarning eskirgan dasturlari va metodlari yosh avlodni zamonaviy hayotga tayyorlay olmayotgan edi;
- iqtisodiy qoloqlik – ishlab chiqarishning rivojlanmasligi, zamonaviy fan-texnika yangiliklarining kirib kelmasligi;
- mustamlaka siyosatining mafkuraviy bosimi – milliy qadriyatlar, til va madaniyat tazyiqqa uchradi.

Bu holat o‘ziga xos bir ijtimoiy-madaniy uyg‘onish zaruratini keltirib chiqardi va buning natijasida jadidchilik deb ataluvchi ma’rifatparvarlik harakati shakllandi.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha, jadid – yangi) – XIX asr oxiri 20- asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat [1, 18-b.]. Jadidchilik dastlab 19- asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan [1, 123-b.]. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka “burjua-liberal, millatchilik harakati” deb ta’rif berilgan [3, 67-b.]. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi. XX asr faqat o‘zbek xalqi hayotida emas, balki butun dunyo hayotida alg‘ov-dalg‘ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo‘ldi. Bu asrga kelib, hayot jarayonlari tezligi haddan ziyod ortdi. Ijtimoiy hodisalarning almashinish surati aqlga sig‘mas darajada tezlashdi.

Turkiston xalqlarining necha asrlar mobaynida davom etib kelayotgan bir maromdagi mudroq hayoti shu asr boshida ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketdi.

Fikrdagi yangilanish, texnika yutuqlarining kirib kelishi, axborot almashishning tezlashgani turkistonliklarning hayot tarzlarini o‘zgartirib yubordi. SHu vaqtga qadar milliy adabiyotimiz milliy hayotimiz bilan elkama-elka bormas edi. Garchi, adabiyotimiz hayotdan tamomila ajralib qolmagan bo‘lsada, ijtimoiy turmushning muammolari uni to‘la chulg‘ab olmasdi. XX asrga kelib, adabiyot hayotga yaqinlashdi. Bu bilan kifoyalanib qolmay, hayotni o‘zgartirishga urina boshladi. Rossiya bosqini, uning zo‘ravonlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarining usiz ham og‘ir bo‘lgan hayotini yanada qiyinlashtirdi. Ijtimoiy adolatsizlik, huquqiy tengsizlik tufayli kechayu-kunduz tinim bilmay ishlagan yurt egalari tobora qashshoqlashib, ularni talash va aldash bilan shug‘ullangan bosqinchilar boyib bormoqda edi. Qashshoqlik tufayli esa turkistonliklarda g‘urursizlik, johillik, tobelik, loqaydlik singari illatlar shakllanmoqda ediki, bu hol o‘z millatining o‘tmishidan xabardor va kelajagidan umidi bor ijodkor ziyolilarni bezovta qilmasligi mumkin emasdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jadid tashkilotlarining maqsadlari kengayib, siyosiy tus oldi: Birinchidan, 1914-1915 yillarda jadidchilik boshidan kechirgan inqiroz, gazetalar va yangi usul maktablarining berkitilishi, jadidlarning bilimsizlik va g‘aflatga qarshi kurash faoliyatini kengaytirishga hokimiyatning yo‘l bermasligi, jamiyatda hech qanday o‘zgarishlar bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Ikkinchidan, jadidchilik harakatiga xorijda o‘qib, chet eldagi milliy taraqqiyparvar harakatlar tajribasini o‘rganib qaytgan turkistonliklar kuchli oqimi kelib qo‘shildi. Ular madaniylashtirish doirasida cheklanib qolish bilan qoniqmay, aniq siyosiy vazifalar qo‘yishni talab qildilar. Soliqlarni kamaytirish, amaldorlar zulmini cheklash, dehqonlar hayotini engillashtirish shu talablar jumlasidan edi. Dastlab, jadidlar amir va xonlarning mazlum xalqqa o‘tkazgan zulmini ma‘rifat orqali isloh qilish uchun kurash maydoniga kirgan bo‘lsalar, keyinchalik bolsheviklarning Turkiston o‘lkasida olib borgan mustamlakachiligiga qarshi birlashdilar.

Oktyabr to‘ntarishidan keyin chor Rossiyasi protektorati hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligi oz muddatda bo‘lsa-da, ozod va qaram bo‘lmagan davlatga aylandi. Bolsheviklar ushbu xonliklarning mustaqilligini faqat nomigagina tan oldilar. Biroq tez orada ularning soxta siyosati chor Rossiyasi vorisi ekanligini namoyon qildi. Bolsheviklarning milliy siyosati natijasida Turkiston mintaqasida uchta sovet respublikasi Turkiston ASSR, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari tuzildi.

Turkiston mintaqasida sovet hokimiyati o'rnatilgach sobiq mustamlaka o'lkalarni Rossiyaga to'la bo'ysundirish uchun Markazning har qanday qaror va dekretlarini tatbiq qilish hamda bajarilishini ta'minlash siyosati yuritildi. Bu esa o'z navbatida mustamlakachilik tuzumi o'zgarmasdan davom etishini anglatar edi. SHu maqsadda bolsheviklar mazkur o'lkalarda o'zining siyosiy hokimiyatini mustahkamlash maqsadida quyidagi qat'iy talabni ilgari surdilar: "Rossiyadan erkinlik va istiqlool tilagida bo'lgan millatlar "sotsializm" dasturini qabul qilishi hamda har mamlakat boshqaruvini ishchi-dehqon vakillari sovetlari degan hukumatga topshirishlari shart" [4], - qilib qo'yildi. Buning nazariy asosida esa, "...mazlum va mazlum bo'lmagan xalqlar mehnatkash ommalarining hamkorlik tartiboti (rejimi)ni o'rnatishning yagona usuli bu – kapitalizmni tugatish va sovet tuzumini o'rnatishdir" [5, 208-b.], - deb belgilandi.

Bolsheviklar Turkiston o'lkasi boshqaruvini to'liq egallashga kirishgach jadidlar, milliy ziyolilarni o'zida birlashtirgan "SHo'roi islomiya" va "SHo'roi ulamo" firqa a'zolari hokimiyatni sovetlarga o'tishiga qarshi yakdil qarorga keldilar. Turkiston o'lkasi xalqlari o'z istiqloolini bermaslik maqsadida 1917 yil 26-28 noyabr (9-11 dekabr) kunlari Qo'qonda Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi chaqirildi. Ushbu Qurultoy Turkiston o'lkasi tarixida yangi davr ochilganini ta'kidlab, Turkiston Muxtoriyati tuzilganligini e'lon qildi [6].

Milliy hukumatning tuzilgani Turkiston o'lkasida shodlik bilan kutib olindi. Jumladan, shu yilning 1 dekabr kuni Namanganda yuz ming kishilik tinch namoyish bo'lib o'tdi. Ularning bayroqlarida "Yashasin Turkistonning erli muxtoriyati va uning hukumati" so'zlari yozilgan edi [7]. Biroq Toshkentda 13 dekabr sanasida boshlangan namoyish oxiri fojea bilan yakunlandi. Bolsheviklar Kaufman maydonida tinch namoyish o'tkazayotgan turkistonliklarni plemiyotdan o'qqa tutdilar [8]. Turkiston xalqi bu xunrezliklarning bosh aybdoriga o'zining nafratini "Men bolshevik emasman" [9] maqolasida keltiradi.

Bolsheviklar Turkiston o'lkasida istiqomat qilayotgan 95 foiz musulmon aholi ustidan hukmronlik qilish, o'z so'zini o'tkazish va buyruqlarini tadbiq qilish maqsadida zo'ravonlik, murosasizlik siyosatini yuritdilar. CHunonchi, Toshkent shahar Dumasini tarqatdilar, Turkiston Muxtoriyatini "boy va burjuachilar qarori" deb atadilar hamda Toshkentda muxtoriyat shodligi uchun namoyishga chiqqan minglarcha musulmonlarni miltiq va plemiyotlardan o'qqa tutdilar. Turkiston Muxtoriyati hokimiyatni bolsheviklardan to'la qaytarib olish uchun qat'iy kirishdi. 1917 yil 25 dekabr kuni Qo'qon shahrida milliy hukumatning 200 nafar namoyondalari s'ezdi bo'lib, unda Turkiston hududidagi barcha idora va hokimiyat darhol muxtoriyat hukumatiga topshirilishi bo'yicha qaror chiqarildi [10].

Bunga javoban 1918 yil 19-26 yanvar kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulodda IV s'ezdida Muxtoriyatga butunlay salbiy munosabat bildirildi. Ushbu s'ezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror chiqardi. S'ezd bolsheviklar fraksiyasining Turkiston Muxtoriyati to'g'risidagi rezolyusiyasini qabul qildi. Ushbu rezolyusiyada Turkiston qonuniy hukumati munofirlarcha "qoraguruhchilar to'dasi" deb ataldi. SHu asnoda 1918 yilning 30 yanvar kuni bolsheviklarning Turkiston Muxtoriyatini tugatish borasidagi bosqinchilik urushi boshlangan. Qizil askarlar tomonidan Qo'qon shahrining tarixiy obidolari, qadamjolari, masjid va madrasalari to'pga tutilganini ko'rgan mahalliy aholi g'azovotga qo'zg'olgan [11]. Biroq ushbu qurolsiz va begunoh insonlar qizil armiya hamda "Dashnoqsutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan beshafqat qurolli drujinalar tomonidan qirib tashlandi.

Sovet hokimiyatining jadidchilik harakatini mamlakatda cheklash yoki uning ko'rinishlarini tag-tomiri bilan qo'porib tashlash hamda uning o'rniga bolshevizmni o'rnatishga bo'lgan harakati shovinizm ko'rishida amalga oshirildi. SHovinizm – boshqa millatlarning hayoti, manfaatlarini yolg'iz o'z millatining manfaati uchun qurbon qilishga aytiladi.

1916 yilda general Kuropatkin: "Turkistonliklar o'z mahalliy va milliy manfaatlarini rusiya va buyuk rus xalqining manfaatlari bilan bir qatorda qo'ya olmaslar. Rusiya eng avval ruslar uchun..." degan edi. Kuropatkinning bu so'zlarini Moskva bolsheviklari "qizil bo'yoq" ga bo'yab tubandagicha so'ylaydilar: "Siz o'z mahalliy, milliy manfaatlarimizni inqilob markazi ya'ni rusiya manfaati bilan bir tekislikda qo'ya olmaymiz. Rus inqilobchi proletarining manfaatlari hammadan oldinda..." [12, 2-b.].

Turkistonda bolsheviklar siyosati tufayli jadidlar va milliy kadrlar boshqaruvdan uzoqlashtirildi va hokimiyat to'liq bolsheviklar qo'liga o'tdi. Chor imperiyasi mustamlakachiligi davrida bu hokimlar soddacha rus, buyuk rus deb atalgan bo'lsa, endi rus proletariyati, rus inqilobchi ishchi-dexqonlari deb nomlandi. Sovet Rossiyasi Turkiston o'lkada mustahkam o'rnashib olishga intilib, sobiq imperiya vorisi sifatida mustamlakachilik siyosatining yangi shaklini yuritdi. Bu to'g'rida jadidchilik harakati taniqli namoyandasi Munavvar Qori Abdurashidxonov shunday degan edi: "Inqilob bizga hech narsa bermadi, hammasi chorizm davridagi kabi avvalgidek, faqat bayroq o'zgardi. Ishsizlik bayrog'i ostida o'lkaga ko'chirish davom etmoqda" [13, 574-b.].

Bolsheviklar o'lka boshqaruviga jadidlar va milliy kadrlarni yaqinlashtirmaslik hamda ularning faoliyatiga ishonchsizlik bilan qarashda davom etdi. Chunki,

Markazdan yuborilgan kadrlar davlat apparatining asosiy bo'g'inlarini egallab, mahalliy xodimlarni boshqaruvdan chetga surib qo'ygan edi. 1923 yil iyun oyida RKP(b) XII s'ezdida sovet mafkurasini mahalliy aholi ongiga singdirishga xizmat qiladigan quyidagi qarorga kelindi. Bunda mahalliy millat vakillaridan bolsheviklarni tayyorlash va ular qo'li bilan mamlakatni boshqarish nazarda tutilgan edi. Shuningdek, s'ezd qarorida milliy respublikalarda marksistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi to'garaklarni tashkil etish, markaziy komitet oldida mahalliy ishchilardan partiyaning instruktorlik bo'limini tuzish, partiyaning tarbiyaviy ishlarini kuchaytirish, joylardagi sovet mafkurasiga xizmat qiluvchi universitetlarni ochish va har bir xalqning ona tilida adabiyotlar chop ettirish belgilandi [14, 88-b.]. O'zbekiston SSRning 30-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti sovet zo'ravonlik tuzumining mustahkamlanishi, shaxsga sig'inish avjga chiqqan sharoitga to'g'ri keldi. Partiya hayotning butun ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy-madaniy sohalarini boshqarishni o'z qo'liga oldi. Rahbar xodimlarga shubha bilan qarash, "xalq dushmanlarini" aniqlash va hibsga olish, turli "muxolifat" guruhlarini fosh qilish kuchaydi. Bu xususida kommunistik partiya saflarini "tozalash" ishlariga boshchilik qilgan bolshevik Petersning "Partiya ikkiyuzlamachilikka chidab tura olmaydi" nomli nutqida [15] keltirib o'tilgan. Ba'zi hollarda sodir etmagan aybini tan oldirish usuli sifatida soxta guvohlardan foydalanildi. Milliy rahbarlarga "o'z xatolarini keng tanqid qilishni istamagan", "xatolarini partiyadan bekitgan", "partiyadan sir tutgan narsalari bor", "partiyaga qarshi alohida planlari bor" kabi asossiz ayblar qo'yildi.

XULOSA

Turkiston mintaqasida amir tuzumini isloh qilish va boshqaruvga zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy qilishga qaratilgan hamda partiya darajasiga o'sgan jadidchilik harakati keyinchalik bolsheviklar tomonidan burjua-millatchi tashkiloti deb nomlandi. Sho'rolar bolshevizmni o'lkada hukmron partiya aylantirishda milliy g'oyalarga yo'g'rilgan jadidchilik harakatini asosiy g'ov deb bildilar. Bolsheviklarning jadid ziyolilariga qarshi olib borgan kurashi oqibatida ko'plab ma'rifatparvarlar qatag'on qilindi va ba'zilar o'z yurtlarini tashlab muhojirlikka jo'nab ketishdi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жади́длар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. Тошкент, 1998. - Б. 18.
2. Фитрат. Танланган асарлар. 1-2-жилдлар, Тошкент, 2000. - Б. 123.
3. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Москва, 1926. - Б. 67.
4. Большевиклар ва биз // "Хуррият". 1918 йил 9 январ. 65-сон

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архиви (Ўзбекистон ПДА), 58-фонд, 10-рўйхат, 46-иш, 208-варақ.
6. Тарих такрорланди // Эл байроғи. 1917 йил 9 декабрь. 12-сон.
7. Мухториятга Туркистон мусулмонлари шодлик намойишлари //Эл байроғи. 1917 йил 9 декабрь. 12-сон.
8. Тошкентда намойиш // Хуррият. 1917 йил 22 декабрь. 61-сон.
9. Мен большевик эмасман // Хуррият. 1918 йил 9 январь. 65-сон.
10. Большевиклар ва биз // Хуррият. 1918 йил 9 январь. 65-сон
11. Туркистон Мухторияти фожеаси // Улуғ Туркистон. 1918 йил 26 феврал. 63-сон.
12. Шовинизм тўғрисида // “Ҳақ Тўркістан”. 1930 йил январь. № 1. – Б.2.
13. ЦК РКП (б) – ВКП (б) и национальный вопрос. Кн. 1. 1918-1933 гг. Сборник документов. Составители: Л.С.Гатагова, Л.П. Кошелева, Л.А. Роговая. – Москва.: РОССПЭН,2005. – С. 574.
14. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Том 3. 1922 – 1925. – Москва: Издательство политической литературы, 1984. – С. 88.
15. Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи архиви, 285-рақамли ҳужжат.